

MAHALLALARDA IJTIMOYIY XIZMATLARNI KO'RSATISH VA IJTIMOYIY HIMOYAGA MUHTOJ OILALARGA YORDAM BERISH TIZIMINI YANGI BOSQICHGA KO'TARISH MASALALARI.

Xolto'rayeva Zahro Doniyorovna

*Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar
Fakulteti Ijtimoiy ish yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mahallada ijtimoiy ish yuritish, mahallaning faoliyati, ijtimoiy himoya va uning turlari, aholini qo'llab-quvvatlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniqlashga qaratilgan*

Kalit so'zlar: *Ijtimoiy xizmat, mahalla funksiyalari, muhtoj oilalar, ijtimoiy yordam, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari, muhtoj qatlam, mahallada ijtimoiy xizmat.*

Mahallalarda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini aniqlash va hal etish ishlarini kompleks tashkil etish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga 'oilabay' yondashuv tizimini joriy etish, ijtimoiy xizmatlarning soni va sifatini oshirish aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy tizim hisoblanadi.

Mahallalarda kompleks yondashuv tizimi asosida ijtimoiy xizmatlarni joriy qilishni muvofiqlashtirish bo'yicha respublika shtabi faoliyatini tashkil etilganligi sababli aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniqlash va ularga yordam ko'rsatishning turlicha usullari tashkil etildi, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni aniqlash ko'zda tutilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri hamda tuman (shahar)larda mutassadi vazirlik, idora, va Moliya vazirligi huzurida budjutdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalari ma'sul xodimlaridan iborat mahallalarda kompleks yondashuv tizimi asosida ijtimoiy xizmatlarni joriy qilishni muvofiqlashtirish bo'yicha hududiy shtabi faoliyatini tashkil etilganligi sababli aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy qo'llash ish bilan ta'minlash, boquvchisini yo'qotganlarga mahalla tomonidan moddiy yordamlar ko'rsatilishi, zo'ravonlikka uchragan ayollarga ijtimoiy reabilitatsiya xizmatini ko'rsatish, nogironligi bo'lgan shaxslarga protez ortopediya moslamalari va aravachalar bilan ta'minlash yo'lga qo'yilgan.

„Ijtimoiy himoya yagona reystr, axborot tizimi negizida „Mahallalarda ijtimoiy xizmat, maxsus elektron moduli faoliyatini tashkil etilishi, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash muhtoj shaxs qatlamlarini aniqlashga qaratilgan. Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokidagi „Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini mustahkamlash, loyihasi doirasida ajratilgan imtiyozli kredit mablag'lari hisobidan turli xildagi telefon, kompyuter va boshqalarni xarid qilish hamda ularni „Mahallada ijtimoiy xizmat, moduli orqali ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish maqsadida mahallalardagi xotin-qizlar faollariga taqdim etiladi. Mahallalardagi xotin-qizlar faollari hamda ijtimoiy

himoyaga mas'ul vazirlik va idoralarning mutaxislarida kompleks yondashuv tizimi asosida ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishga oid bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida an'anaviy va masofaviy o'quv kurslarini tashkil etish choralarini aniqlash va qo'llashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023-yil 28-sentabrda mahalla darajasida ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatishning yangi tizimi joriy etishga qaratilgan qarorni imzolaydi. Bunda aholining muhtoj qatlamlarini aniqlash ularga yordam choralarini tog'ri taqsimlash, aholiga ijtimoiy-tibbiy yordamni berishga qaratilgan ijtimoiy xizmatlar majmuidan iborat.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari-fuqarolarning xalq hokimiyatini bevosita amalga oshirishi, davlat va jamiyat ishlaridan to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishi vositalaridan biri hisoblanadi. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari quyidagilardir: shahar, shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla fuqarolarining yig'ini; fuqarolar yig'inining kengashi; fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar; fuqarolar yig'inining taftish komissiyasi; tuman markazidan olisda joylashgan va borish qiyin bo'lgan shaharchalar, qishloqlar va ovullarda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda tuzatiladigan ma'muriy komissiya markazlari hisoblanadi. Bu organlar hozirda O'zbekistonda 10 mingdan ortiq. Aholini qo'llab-quvvatlash, ehtiyojmat oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, nogironligi bor shaxslarni xar tamonlama qo'llash, reabilitatsiya markazlariga joylashtirish, zo'ravonlikka uchragan shaxslarga tibbiy, ijtimoiy, psixologik xizmat ko'rsatish birinchi bo'lib mahalladan boshlanadi.

2004-yil 29-avgustda "Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida", qonunida fuqarolar yig'ini organlarini va ularning mansabdor shaxslarini saylash fuqarolarning qonunda belgilangan saylov huquqlari kafolatlarini ta'minlagan holda, umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin yoki ochiq ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Buda asosan har bir shaxs o'zi mustaqil ovoz berib saylaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 105-moddasida "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida", qonuni qabul qilingan. unda mahalla keng yoritilib berilgan, mahallaning funksiyalari, vazifalari tushintirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 1-martdagi PF-81-son Farmoni hamda "Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida", 2022-yil 1-martdagi PQ-147-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaroriga binoan mahallada yashovchi keksa, nogiron, boquvchisini yo'qotgan shaxslar, ijtimoiy axvoli og'ir oilalarni qo'llab-quvvatlash, yordam berish chora-tadbirlarini mahallada joriy etish keng yo'lga qo'yildi va ularning axvoli yaxshi tomonga o'zgartirilgan.

Prezidentimiz qarori bilan mahallalardagi faol xotin-qizlar ijtimoiy xizmat va yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni ijtimoiy himoya qilishning individual rejalarini ishlab chiqadi. Ular yordam ko'rsatishning yangicha usullarini aholiga ko'rsatib, hayotiy darajalarini yaxshilaydi. Turmush sharoitini yaxshilab atrofga moslashtiradi. Ijtimoiy hayotini yaxshilash maqsadida mahalla tomonidan extiyojmand qatlamlar, boquvchisini yo'qotganlar, kam taminlanganlarga, qaramog'ida nogironligi bulgan oilalarga, ko'p bolali oilalarga turli xil "Ayollar, Yoshlar, Temir va Mehr daftarlar,, ishga tushurildi.

Mahalladagi faol ayollarning zimmasiga qo'shimcha vazifalar yuklatildi; Bular har bir xonadonning ahvolini kuzatishni va oilaning real axvolini o'rganishga, extiyojmand qatlamni aniqlashga, har bir ijtimoiy himoyaga muhtoj oila uchun individual ijtimoiy himoya rejasini ishlab chiqish, muhtoj shaxslarni doimiy nazorat qilish, oilalarning murakkab va yuqori texnologiyali tibbiy operatsiyalarga, nogironligi bulgan shaxslarning protez-ortopediya buyumlariga va boshqa ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan extiyojlari yuzasidan tavsiya va arizalarni yig'ish ularga yordam choralari ko'rsatiladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki mahalla bu insonlarning bir birini bog'lovchi, insonlar hayotini yaxshilovchi, inson hayotini tekshirib aniqlab ko'ruvchi, aholi qatlamlarini aniqlashga qaratilgan. Ijtimoiy yordam va xizmatga muhtoj shaxslarga yordam ko'rsatiladi. Oilada bo'lgan turli vaziyatlar, nizolarda albatta mahalla aralashadi. Ularning ahvoli yaxshi tomonga o'zgartiriladi va ijtimoiy hayoti qayta izga tushirilishiga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. "Oila, mahalla, maktab hamkorligi,, Kontsepsiyasi. 1993
3. "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida,,gi qonuni. 1999-yil 14-aprel
4. "Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida,,gi qonuni. 2022-yil 1-martdagi PQ-147-sonli qarori